



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «26» июль

VI-51-135-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

Ангор тумани Адлиya bo'limi tomonidan 2022 yil yarim yillik yakuni boyicha davlat organlari va tashkilotlari tuman tuzilmalarida norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati yuzasidan tuman adliya bo'limi boshlig'ining axboroti to'g'risida

Qonun hujjatlarini ijro etish va uning normalarini amaliyotda qo'llash, qonunchilik hujjatlari ijrosini bir xilda ta'minlash, noto'g'ri yoki ziddiyatli amaliyotga olib keladigan normalarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish nuqtai nazaridan tuman Adliya bo'limi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, bo'linga kelib tushgan (elektron shaklda) 584 ta normativ-huquqiy hujjatlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotning tumandagi hududiy bo'limlariga yetkazilgan. 6 ta sohada o'rganish amalga oshirilib, tahlil va monitoringlar davomida davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari faoliyatida 823 ta qonun buzilishlar va huquqni qo'llashda tizimli muammolar aniqlangan. ushbu aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf yetish va qonun buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan chora ko'rish yuzasidan 242 ta taqdimnoma, vakolatli organlarga 49 ta ma'muriy takliflar kiritilib, 78 nafar shaxslar intizomiy javobgarlikka tortilgan va davlat organlari va tashkilotlarining 323 ta hujjatlari bekor qilingan.

2022-yilning o'tgan davri mobaynida adliya bo'limiga tuman hokimligi hamda xalq deputatlari Angor tuman kengashidan 25 ta kelib tushgan normativ tusdagi qaror loyihalarining 21 tasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, tegishli ijobiy xulosalar berilgan. 4 ta loyihalar belgilangan talablarga rioya qilinmay taqdim qilinganligi sababli qaytarilgan.

Bo'limning davlat xizmatlari markazi tomonidan 2022 yilning o'tgan birinchi yarim yilligi davomida fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga jami 12498 ta davlat xizmatlari ko'rsatilgan. Fuqarolik holati dalolatnomasini yozish

yoʻnalishida oʻtgan davr mobaynida 1751 ta tugʻilish qayd etilgan boʻlib, ajrimlar soni 73 ta va 447 ta oʻlim qayd etilgan. Nikohga kirish uchun 568 juftlikdan ariza qabul qilinib, 519 ta nikoh qayd etilishi taʼminlangan.

Tumanda 11 ta davlat organlari va tashkilotlariga “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali yuridik xizmatlar koʻrsatib kelinmoqda. 2022 yilning oʻtgan 1-yarim yilligi davomida tumandagi davlat organlari va tashkilotlarining 3784 ta hujjatlari “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali kelib tushgan. Kelib tushgan 2829 ta buyruq loyihalarining 2784 tasiga ijobiy xulosa berilgan, qolgan 45 ta buyruq loyihalarida kamchiliklari mavjudligi sababli qaytarilgan.

Shuningdek, ushbu axborotda yuridik xizmat koʻrsatish markazlari bilan “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali davlat organlari va tashkilotlaridan kelib tushgan shartnomaviy munosabatlarga oid hujjatlar bilan ishlash, tashkilotlar, fermer xoʻjaliklari va boshqa subyektlar bilan hujjatlarni rasmiylashtirish (buyruq, qaror va shartnomalar) holati, Qonunchilikdagi tartib, talab va soʻnggi yangiliklarni yetkazish maqsadida boʻlim tomonidan oʻtkazilgan targʻibot tadbirlari, mahalliy va markaziy televideniya, gazeta va jurnallarda chiqishlar qilinganligi, plakat, buklet va flayerlar tarqatilishi, joylarda oʻtkazilgan davra suhbatlari, seminarlar va targʻibot tadbirlari, sohaga oid jamoatchilik fikrini oʻrganish maqsadida soʻrovnomalar oʻtkazilishi va boshqa koʻplab olib borilgan ishlar atroflicha yoritib berilgan.

Tuman adliya boʻlimi tomonidan davlat organlari va tashkilotlari tuman tuzilmalarida norma ijodkorligi hamda huquqni qoʻllash amaliyoti yuzasidan axboroti xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha doimiy komissiyasi yigʻilishida eshitilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumani Adliya boʻlimi boshligʻining 2022 yil 2-chorak yakuni boʻyicha davlat organlari va tashkilotlari tuman tuzilmalarida norma ijodkorligi hamda huquqni qoʻllash amaliyoti holati yuzasidan tuman Kengashining doimiy komissiyasi yigʻilishida bergan axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Adliya boʻlimi boshligʻi Gʻ.Tilovqobilov, tuman hokimligi bosh yuriskonsulti Ch.Xalikov tegishli tashkilot va idoralar bilan birgalikda joriy yilning iyul-avgust oylarida:

- davlat organlari va tashkilotlarida elektron shartnomaviy munosabatlarga oid hujjatlar bilan ishlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ–5168-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari to‘g‘risida”gi Nizom asosida yuridik xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlar tomonidan “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali hujjat yuritish borasida ishlarini yaxshilash maqsadida tumandagi tashkilotlarda o‘quv-seminarlar tashkil etsin.

3. Tuman hokimligi bosh yuriskonsulti Ch.Xalikov hamda Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (M.Yarmatov)ga Kengash yig‘ilishlarida tasdiqlash uchun kiritiladigan normativ-huquqiy tusdagi barcha qarorlar loyihalarini belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyiholari muhokamasi (regulation.gov.uz) portaliga jamoatchilik muhokamasi o‘tkazilishi uchun joylashtirilishi ta‘minlansin. Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har chorak yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot taqdim etish topshirilsin.

4. Angor tumani adliya bo‘limi (G’.Tilovqobilov) huquqni qo‘llash amaliyotining izchilligi va bir xilligini taminlash ustidan tizimli nazoratni davom ettirish, normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarini tayyorlash sifatini oshirish borasida davlat boshqaruv organlarining norma ijodkorligi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga uslubiy rahbarlik qilish ishlarini amalga oshirib borish, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi monitoringini va tahlilini yuritib borsin hamda har chorak yakuni bo‘yicha tuman Kengashi sessiyasida axborot berib borilishini ta‘minlasin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga amalga oshirilayotgan huquqiy targ‘ibot tadbirlarini muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Yu.Xalimov) zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV